2026-yil
9(2)-son

“FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI”

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9(2)-son

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(2)-son

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA FANLARI
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor (Belgrad, Serbiya)
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor (Grodno, Belarussiya)
Boboyeva Sayyora Boboradjabovna, psixologiya fanlari doktori, professor (Tojikiston)
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

Turaxonov Abdukarim Eshkuziyevich, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(2)-son

UDK: 378.11:37.013:316.77

Mamatova Xilola Muxiddinovna,
Guliston davlat pedagogika instituti,
Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor

OTM RAHBAR-XODIMLARINING KOMMUNIKATIV KREATIVLIGINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINING PEDAGOGIK TIZIMI

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalari rahbar-xodimlarining kommunikativ kreativligini boshqarish mexanizmlarining pedagogik tizimi nazariy va tashkiliy-pedagogik jihatdan tahlil etilgan. Oliy ta'lim muhitida strategik boshqaruv, raqamlashtirish, innovatsion faoliyat va ichki kommunikatsiya jarayonlarining murakkablashib borishi rahbar-xodimlarning kommunikativ kreativligini rivojlantirishga tizimli yondashuvni taqozo etishi asoslangan. Tadqiqotda kommunikativ kreativlikni rivojlantirishning ilmiylik, tizimlilik, uzviylik va izchillik, ijtimoiy mas'ullik, reflektivlik, individuallashtirish, kasbiy yo'naltirilganlik kabi tamoyillari aniqlashtirilgan. Shuningdek, kommunikativ kreativlikni boshqarishning diagnostik-tahliliy, maqsadli-loyihalash, tashkiliy-pedagogik, amaliy-faoliyat, monitoring va refleksiv baholash, institutsionallashtirish hamda barqaror rivojlantirish bosqichlarini qamrab oluvchi tashkiliy-pedagogik algoritm taklif etilgan. Rahbar-xodimlarning kommunikativ kreativligini rivojlantirishda formal, noformal va informal ta'lim shakllarining o'zaro integratsiyasi muhim pedagogik shart sifatida asoslangan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim muassasasi, rahbar-xodim, kommunikativ kreativlik, boshqaruv mexanizmi, pedagogik tizim, tashkiliy-pedagogik mexanizm, transformatsion liderlik, formal ta'lim, noformal ta'lim, informal ta'lim, kommunikativ kompetensiya.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СИСТЕМА МЕХАНИЗМОВ УПРАВЛЕНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КРЕАТИВНОСТЬЮ РУКОВОДИТЕЛЕЙ И СОТРУДНИКОВ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

Аннотация. В статье теоретически и организационно-педагогически рассматривается педагогическая система механизмов управления коммуникативной креативностью руководителей и сотрудников высших образовательных учреждений. Обосновано, что усложнение процессов стратегического управления, цифровизации, инновационной деятельности и внутренней коммуникации в системе высшего образования обусловливает необходимость системного подхода к развитию коммуникативной креативности руководителей и сотрудников. Определены такие принципы

развития коммуникативной креативности, как научность, системность, преемственность и последовательность, социальная ответственность, рефлексивность, индивидуализация и профессиональная направленность. Предложен организационно-педагогический алгоритм управления развитием коммуникативной креативности, включающий диагностико-аналитический, целевой и проектировочный, организационно-педагогический, практико-деятельностный, мониторингово-рефлексивный этапы, а также этапы институционализации и устойчивого развития. Обоснована значимость интеграции формального, неформального и информального образования в процессе развития коммуникативной креативности руководителей и сотрудников.

Ключевые слова: высшее образовательное учреждение, руководитель и сотрудник, коммуникативная креативность, механизм управления, педагогическая система, организационно-педагогический механизм, трансформационное лидерство, формальное образование, неформальное образование, информальное образование, коммуникативная компетентность.

PEDAGOGICAL SYSTEM OF MECHANISMS FOR MANAGING THE COMMUNICATIVE CREATIVITY OF HIGHER EDUCATION INSTITUTION ADMINISTRATORS AND STAFF

Abstract. This article examines the pedagogical system of mechanisms for managing the communicative creativity of administrators and staff in higher education institutions from theoretical and organizational-pedagogical perspectives. It substantiates the need for a systematic approach to developing communicative creativity in response to the increasing complexity of strategic management, digitalization, innovation, and internal communication in higher education. The study identifies key principles for developing communicative creativity, including scientific validity, systematicity, continuity and consistency, social responsibility, reflexivity, individualization, and professional orientation. An organizational-pedagogical algorithm for managing the development of communicative creativity is proposed. It includes diagnostic and analytical, goal-setting and design, organizational-pedagogical, practical-activity, monitoring and reflective assessment stages, as well as institutionalization and sustainable development. The integration of formal, non-formal, and informal learning is substantiated as an important pedagogical condition for developing the communicative creativity of higher education administrators and staff.

Keywords: higher education institution, administrator and staff, communicative creativity, management mechanism, pedagogical system, organizational-pedagogical mechanism, transformational leadership, formal education, non-formal education, informal education, communicative competence.

Kirish. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari faoliyatida strategik boshqaruv, raqamlashtirish, xalqaro hamkorlik, ta'lim sifatini ta'minlash va innovatsion faoliyatni rivojlantirish kabi yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur jarayonlarning samarali tashkil etilishi rahbar-xodimlardan nafaqat kasbiy bilim va tashkiliy qobiliyatlarni, balki rivojlangan kommunikativ kompetensiya, ijodiy fikrlash va turli kasbiy vaziyatlarda samarali muloqot qila olish qobiliyatini ham talab etadi.

Oliy ta'lim muassasasida boshqaruv samaradorligi ko'p jihatdan rahbar va xodimlar o'rtasidagi kommunikativ munosabatlarning mazmuni, ochiqligi va natijadorligiga bog'liq. Ayniqsa, raqamli transformatsiya sharoitida axborot almashinuvi tezligi, turli avlod vakillarining bir jamoada faoliyat yuritishi, yangi boshqaruv shakllarining joriy etilishi va innovatsion loyihalarning ko'payishi kommunikativ jarayonlarga yangi talablarni yuzaga keltirmoqda.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida boshqaruvning zamonaviy tamoyillarini joriy etish, ta'lim muassasalarining boshqaruv samaradorligini oshirish va rahbar kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, oliy ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarda boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish, rahbar kadrlarning mas'uliyatini oshirish hamda zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish vazifalari belgilangan [1; 2].

Shu nuqtai nazardan, OTM rahbar-xodimlarining kommunikativ kreativligini rivojlantirish va boshqarishning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish zamonaviy oliy ta'limning dolzarb masalalaridan biridir. Kommunikativ kreativlik rahbar-xodimning mavjud axborotni qayta ishlashi, muammoli vaziyatlarda yangi kommunikativ yechimlarni topishi, o'z fikrini aniq va tushunarli ifodalashi, jamoa a'zolarining fikrlarini tinglashi hamda hamkorlik muhitini shakllantira olishi bilan bog'liq kompleks sifat sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotning maqsadi OTM rahbar-xodimlarining kommunikativ kreativligini boshqarish mexanizmlarining pedagogik mazmunini aniqlash, uni rivojlantirish tamoyillari va tashkiliy-pedagogik algoritmini ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Oliy ta'lim muassasalarini boshqarish, rahbarlik kompetensiyalarini rivojlantirish va akademik muhitdagi kommunikatsiya masalalari pedagogika, psixologiya, menejment va sotsiologiya fanlarining kesishgan nuqtasida tadqiq etib kelinmoqda. Oliy ta'limdagi boshqaruv faoliyatining o'ziga xosligi rahbarning ma'muriy vazifalarni bajarishi bilan bir qatorda, professor-o'qituvchilar, xodimlar va talabalar bilan samarali kommunikativ munosabatlarni yo'lga qo'yishini ham talab etadi.

R.N. Abramov akademik kasb va menejment o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilib, oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonlarining murakkab va ko'p subyektli xususiyatini ko'rsatadi [3]. Mazkur yondashuv oliy ta'lim muassasasida boshqaruv faoliyatini faqat ma'muriy jarayon sifatida emas, balki turli kasbiy va

ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi hamkorlikni tashkil etuvchi jarayon sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi.

E.M. Avraamova va Yu.B. Verpaxovskaya tadqiqotlarida oliy ta’lim muassasasi bitiruvchilari va ish beruvchilar o‘rtasidagi o‘zaro kutilmalar masalasi yoritilgan bo‘lib, unda kasbiy kompetensiyalarning zamonaviy mehnat bozori talablariga mosligi masalasi muhim o‘rin egallaydi [4]. Bu yondashuv oliy ta’lim muassasasida boshqaruv va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishning amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi.

E.A. Aksenova, T.Yu. Bazarov va boshqa tadqiqotchilar xodimlarni boshqarish tizimida inson omili, kasbiy rivojlanish va boshqaruv munosabatlarini tizimli tashkil etish masalalariga e’tibor qaratgan [5]. Ushbu qarashlar rahbar-xodimlarning kommunikativ faoliyatini tashkil etishda boshqaruv, kasbiy va shaxsiy rivojlanish omillarining o‘zaro bog‘liqligini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

A.A. Aronov ijodkorlikni ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida tahlil qilib, ijodiy faoliyatning shaxs va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rniga e’tibor qaratadi [6]. Mazkur ilmiy yondashuv kommunikativ kreativlikni faqat nutqiy mahorat emas, balki ijtimoiy hamkorlik, yangicha fikrlash va muammoli vaziyatlarda kreativ yechimlar ishlab chiqish bilan bog‘liq hodisa sifatida talqin qilishga asos bo‘ladi.

Shunday qilib, mavjud tadqiqotlar tahlili kommunikativ kreativlikni boshqarish masalasini oliy ta’lim muassasasining umumiy boshqaruv tizimi, kasbiy rivojlanish, ijodkorlik va liderlik jarayonlari bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologik jihatdan tizimli, kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan va faoliyatga asoslangan yondashuvlarga tayandi. Tadqiqot jarayonida muammoga oid ilmiy-pedagogik va ijtimoiy-psixologik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatish, tizimlashtirish, umumlashtirish hamda boshqaruv amaliyotini o‘rganish metodlaridan foydalanildi.

Kommunikativ kreativlikni boshqarish mexanizmini ishlab chiqishda rahbar-xodimlarning mavjud kommunikativ salohiyatini aniqlash, rivojlanish ehtiyojlarini belgilash, maqsad va vazifalarni loyihalash, amaliy faoliyatni tashkil etish, natijalarni monitoring qilish va refleksiv baholash bosqichlari izchil tizimlashtirildi.

Natijalar va muhokama. OTM rahbar-xodimlarining kommunikativ kreativligini boshqarish mexanizmi maqsad, mazmun, metod, vosita va kutilayotgan natijalarni o‘zaro bog‘lovchi yaxlit tashkiliy-pedagogik tizim sifatida qaraladi. Mazkur tizim rahbar-xodimlarning ijtimoiy, kasbiy, kommunikativ va boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kommunikativ kreativlikni rivojlantirish jarayonida quyidagi ustuvor tamoyillarga tayanish maqsadga muvofiq:

1. Ta’limning ilmiyligi — kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishda ilmiy asoslangan metod va texnologiyalardan foydalanish.

2. Tizimlilik, uzviylik va izchillik — kommunikativ kreativlikni bir martalik tadbir emas, balki uzluksiz rivojlanish jarayoni sifatida tashkil etish.

3. Ijtimoiy identifikatsiya — rahbar-xodimning o‘zini oliy ta’lim muassasasining umumiy maqsad va qadriyatlari bilan bog‘lay olishini ta’minlash.

4. Ijtimoiy mas’ullik — kommunikativ qarorlar va muloqot natijalarining jamoa hamda ta’lim muassasasi faoliyatiga ta’sirini hisobga olish.

5. Reflektivlik — rahbar-xodimning o‘z kommunikativ faoliyatini tahlil qilishi, xatolarini aniqlashi va faoliyatini takomillashtirishga intilishi.

6. Individuallashtirish — rahbar-xodimlarning shaxsiy tajribasi, kasbiy ehtiyojlari va kommunikativ imkoniyatlarini hisobga olish.

7. Kasbiy yo‘naltirilganlik — kommunikativ kreativlikni bevosita boshqaruv va kasbiy faoliyat vazifalari bilan bog‘lash.

Ushbu tamoyillarning o‘zaro uyg‘unligi rahbar-xodimlarning kommunikativ kreativligini rivojlantirish uchun yaxlit pedagogik muhitni shakllantirish imkonini beradi.

Kommunikativ kreativlikni boshqarishning tashkiliy-pedagogik tizimi rahbar-xodimlarning mavjud kommunikativ imkoniyatlarini aniqlash, ularning kasbiy ehtiyojlarini o‘rganish, rivojlantirish dasturlarini loyihalash va amaliy faoliyat orqali yangi kommunikativ strategiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi.

Mazkur tizimni amalga oshirish quyidagi izchil bosqichlar asosida tashkil etilishi mumkin.

Diagnostik-tahliliy bosqich

Ushbu bosqichda rahbar-xodimlarning kommunikativ va kreativ salohiyati o‘rganiladi. Muloqot jarayonidagi mavjud muammolar, jamoaviy hamkorlik holati, axborot almashinuvi samaradorligi, innovatsion faoliyatga ta’sir etuvchi omillar va individual rivojlanish ehtiyojlari aniqlanadi.

Maqsadli-loyihalash bosqichi

Diagnostika natijalariga asoslanib, kommunikativ kreativlikni rivojlantirishning strategik maqsadlari, vazifalari, mazmuni va kutilayotgan natijalari belgilanadi. Shuningdek, rivojlantirish dasturlari, treninglar, seminarlar, amaliy mashg‘ulotlar va individual rivojlanish yo‘nalishlari loyihalashtiriladi.

Tashkiliy-pedagogik bosqich

Mazkur bosqichda kommunikativ kreativlikni rivojlantirish uchun zarur tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlar yaratiladi. Treninglar, seminarlar, muammoli vaziyatlar tahlili, keys-stadi, munozara, guruhiy loyihalar va boshqa interfaol metodlardan foydalanish orqali rahbar-xodimlarning kommunikativ faolligi rag‘batlantiriladi.

Amaliy-faoliyat bosqichi


Rahbar-xodimlar innovatsion kommunikativ faoliyatga jalb qilinadi. Real boshqaruv vaziyatlari, jamoaviy muammolar va kasbiy vazifalar asosida amaliy topshiriqlar bajariladi. Bunda kreativ fikrlash, muqobil yechimlarni ishlab chiqish, fikrni aniq ifodalash va konstruktiv muloqot olib borish ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

Monitoring va refleksiv baholash bosqichi

Jarayonning samaradorligi muntazam monitoring qilinadi. Rahbar-xodimlarning rivojlanish dinamikasi kuzatiladi, o‘z-o‘zini baholash va refleksiya tashkil etiladi. Belgilangan mezonlar asosida natijalar tahlil qilinib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tegishli choralar belgilanadi.

Institutsionallashtirish va barqaror rivojlantirish bosqichi

Shakllangan samarali tajribalar oliy ta’lim muassasasining boshqaruv tizimiga integratsiya qilinadi. Kommunikativ kreativlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi mexanizmlar muntazam malaka oshirish, ichki treninglar, mentorlik, kasbiy hamkorlik va refleksiv faoliyat bilan bog‘lanadi.



1-rasm. OTM rahbar-xodimlarining kommunikativ kreativligini boshqarish mexanizmini rivojlantirish algoritmi

Mazkur algoritm kommunikativ kreativlikni rivojlantirishni uzluksiz jarayon sifatida tashkil etish imkonini beradi. Uning muhim jihati shundaki, diagnostika natijalari keyingi loyihalash bosqichiga, amaliy faoliyat natijalari esa monitoring va refleksiyaga bog‘lanadi. Shu tariqa tizim o‘z-o‘zini takomillashtirib boruvchi pedagogik mexanizm sifatida shakllanadi.

Kommunikativ kreativlikning rivojlanishida ta’lim shakllarining o‘zaro integratsiyasi ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, formal, noformal va informal ta’lim imkoniyatlaridan kompleks foydalanish rahbar-xodimlarning kasbiy rivojlanish ehtiyojlariga mos keladi.

Formal ta’lim — davlat tomonidan tan olingan ta’lim muassasalarida amalga oshiriladigan tizimli va rasmiy ta’lim shaklidir. Malaka oshirish kurslari, magistratura va doktorantura dasturlari, kredit-modul asosidagi kasbiy rivojlanish dasturlari hamda maxsus rahbarlik kurslari ushbu shaklning asosiy ko‘rinishlari hisoblanadi. Formal ta’limning afzalligi uning tizimliligi, aniq o‘quv dasturi va baholash mezonlariga egaligi bilan belgilanadi.

Noformal ta’lim rasmiy ta’lim tizimidan tashqarida, ammo maqsadli va muayyan dastur asosida tashkil etiladigan ta’lim faoliyatini anglatadi. Treninglar, seminarlar, vebinarlar, workshoplar, master-klasslar, keys-stadi mashg‘ulotlari va kasbiy hamkorlik klublari bunga misol bo‘la oladi. Ushbu ta’lim shakli amaliy ko‘nikmalarni tezkor rivojlantirish va aniq kasbiy ehtiyojlarga moslashish imkonini beradi.

Informal ta’lim esa kundalik kasbiy faoliyat, mustaqil o‘qish, tajriba almashish, kuzatish, muloqot va refleksiya jarayonida tabiiy ravishda shakllanadi. Kitob va ilmiy maqolalarni o‘qish, videodarslar va podkastlardan foydalanish, tajribali rahbarlar bilan maslahatlashish, o‘z faoliyatini tahlil qilish kabi faoliyatlar informal ta’limning muhim ko‘rinishlaridir.

Ushbu uch ta’lim shaklining integratsiyasi rahbar-xodimlarning kommunikativ kreativligini rivojlantirishni uzluksiz jarayonga aylantiradi. Formal ta’lim nazariy va metodik asoslarni shakllantirsa, noformal ta’lim ularni amaliy vaziyatlarda qo‘llash imkonini beradi, informal ta’lim esa o‘z-o‘zini rivojlantirish va kasbiy refleksiyani davom ettirishga xizmat qiladi.

Kommunikativ kreativlik rahbarlik faoliyatining turli modellarida, jumladan, transformatsion, interaktiv, xizmatkor va strategik liderlik yondashuvlari doirasida namoyon bo‘lishi mumkin. Oliy ta’lim muassasasida transformatsion liderlikning muhim jihatlaridan biri jamoa a’zolarini umumiy maqsad atrofida birlashtirish, innovatsion g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash va o‘zgarishlarni amalga oshirishda xodimlarning faol ishtirokini ta’minlashdir.

Shuningdek, taqsimlangan liderlik yondashuvi ham kommunikativ kreativlikni rivojlantirish uchun muhim imkoniyat yaratadi. Bunday yondashuvda rahbarlik mas’uliyati faqat yuqori bo‘g‘in rahbarlari bilan cheklanib qolmay, dekanlar, kafedra mudirlari, professor-o‘qituvchilar va boshqa mas’ul xodimlarning kasbiy

salohiyati asosida taqsimlanadi. Natijada jamoada fikr almashish, o‘zaro maslahatlashish va muammolarni birgalikda hal etish imkoniyatlari kengayadi.

Kommunikativ kreativlik rahbar-xodimga murakkab boshqaruv vaziyatlarida fikrni aniq ifodalash, ilmiy va amaliy dalillardan foydalanish, muqobil yechimlarni taklif etish, loyiha va vazifalarning ustuvor jihatlarini belgilash hamda turli auditoriyalar bilan samarali muloqot qilish imkonini beradi. Shu sababli kommunikativ kreativlik oliy ta’lim muassasasining ichki boshqaruv samaradorligi va innovatsion rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq kompetensiyalardan biri sifatida qaralishi mumkin.

Xulosa. Oliy ta’lim muassasalarida rahbar-xodimlarning kommunikativ kreativligini rivojlantirish zamonaviy boshqaruvning muhim tarkibiy yo‘nalishlaridan biridir. Kommunikativ kreativlik rahbarning nafaqat o‘z fikrini aniq va ta’sirchan ifodalashi, balki jamoa a’zolarining fikrlarini tinglashi, muammoli vaziyatlarda yangi yechimlarni ishlab chiqishi, hamkorlik muhitini shakllantirishi va innovatsion tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashi bilan namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijasida kommunikativ kreativlikni boshqarishning ilmiylik, tizimlilik, uzviylik va izchillik, ijtimoiy mas’ullik, reflektivlik, individuallashtirish va kasbiy yo‘naltirilganlik tamoyillariga asoslangan pedagogik tizimi taklif etildi. Mazkur tizim diagnostik-tahliliy, maqsadli-loyihalash, tashkiliy-pedagogik, amaliy-faoliyat, monitoring va refleksiv baholash, institutsionallashtirish hamda barqaror rivojlantirish bosqichlarini o‘z ichiga oladi.

Rahbar-xodimlarning kommunikativ kreativligini rivojlantirishda formal, noformal va informal ta’lim shakllarini o‘zaro uyg‘unlashtirish uzluksiz kasbiy rivojlanish uchun zarur pedagogik shartlardan biri hisoblanadi. Bunday integratsiya nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va shaxsiy refleksiyaning yagona tizimda rivojlanishini ta’minlaydi.

Shunday qilib, OTM rahbar-xodimlarining kommunikativ kreativligini boshqarish mexanizmlarini pedagogik tizim asosida tashkil etish oliy ta’lim muassasasida samarali ichki kommunikatsiyani yo‘lga qo‘yish, jamoaviy hamkorlikni kuchaytirish, innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va rahbar-xodimlarning kasbiy rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida qaralishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi PQ-4391-son “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
3. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-tom. — Toshkent: O‘zbekiston, 2019. — 400 b.

4. Абрамов Р.Н. Менеджериализм и академическая профессия. Конфликт и взаимодействие // Социологические исследования. — 2011. — № 7. — С. 37–47.

5. Авраамова Е.М., Верпаховская Ю.Б. Работодатели и выпускники вузов на рынке труда: взаимные ожидания // Социологические исследования. — 2006. — № 4. — С. 37–46.

6. Аксенова Е.А., Базаров Т.Ю., Беков Х.А. и др. Управление персоналом в системе государственной службы. — М.: ИПК госслужбы, 1997. — 224 с.

7. Аронов А.А. Творчество как социокультурный феномен: курс лекций. — М.: Московский государственный университет культуры и искусств, 2001. — 126 с.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9(2)-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694